

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

Son 1/S. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/1 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Fayziyev O'rinboy Toshmuhammad o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJIGA EGA BO'LGAN INSONLARNI IJTIMOIY HIMOYALASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR	9-16
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i>	
ФАРГОНА ВОДИЙСИ МИНГ ЎЗБЕК УРУҒИ МАНБАЛАРИ ТАРИХИДАН	17-22
<i>Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li</i>	
AFRIG'IYLAR SULOLASI TARIXINING TURK TILLI TADQIQOTLARDA YORITILISHI	23-26
<i>Исмоилова Нигорахон Усмонжановна</i>	
НАЛИВКИН И ЕГО СВЕДЕНИЯ О ТУЗЕМНОЙ ЖЕНЩИНЕ	27-34
<i>Мирхакимова Феруза Холдоржон кизи</i>	
ВЗГЛЯД В ИСТОРИЮ МЕМОРИАЛЬНОГО МУЗЕЯ САДРИДДИН АЙНИ	35-40

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Zhao Rong</i>	
RESEARCH ON THE CONSTRUCTION OF CORE CURRICULUM STANDARDS FOR CROSS-BORDER E-COMMERCE MAJORS BASED ON HIGHER VOCATIONAL EDUCATION IN INNER MONGOLIA	41-48
<i>Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o'g'li</i>	
FARG'ONA VILOYATIDA AGROTURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RESURS SALOHIYATINI BAHOLASH	49-58
<i>Malikova Gulhayo Turdali qizi</i>	
TIJORAT BANKLARDA INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI	59-64
<i>Maxmudov Anvarjon</i>	
SOLIQ HUQUQBUZARLIKLARINI TARKIBI, SHAKLLANISH MANBALARI VA ULARNI IQTISODIY MOHIYATI	65-75
<i>Мухитдинов Аҳрор</i>	
РАҲАМЛИ ИҚТИСОДИЁТДА ЯГОНА МАРКАЗЛАШГАН ДИСПЕЧЕРЛИК ХИЗМАТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ	76-82
<i>Jurayev Xusan Atamuratovich</i>	
KORXONANI MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	83-89
<i>Butunov Shaymardan Berdiyarovich</i>	
NOANIQLIK ORQALI HARAKAT QILISH: IQTISODIY BEQARORLIK SHAROITIDA MOLIYAVIY TAHLIL	90-96
<i>Islomova Mohlaroyim Inomjon qizi, Ortiqova So'g'diyona Abdusodiq qizi, Abdurahimova Zulhumor Azimjon qizi</i>	
TURIZM XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI QO'LLASH	97-103
<i>Содиков Анвар</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИ ИСТИҚБОЛЛАРИНИ КЎП ОМИЛЛИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАР АСОСИДА БАҲОЛАШ ВА МУҶОБИЛ СЦЕНАРИЙЛАРИНИ АНИҚЛАШ...	104-116

<i>Norov Asror Egamberdiyevich, Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich</i>	
O'ZBEKISTONDA DOKTORANTURA FAOLIYATI YO'LGA QO'YILGAN OLIY TA'LIM VA ILMIY TADQIQOT MUASSASALARI	117-122

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Эшонқурова Нуржакон Абдужабборовна</i>	
ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТЛАРИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ: ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛ	123-130
<i>Khalilova Shakhlo Abdurashitovna</i>	
IBN SINA AND HIS CONTRIBUTION TO SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION: RETHINKING THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS	131-136

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Saidov Hakim G'ofurovich</i>	
VATANPARVARLIK VA MILLIY G'URURNING FALSAFIY KATEGORIAL NEGIZLARI	137-141
<i>Jabborov Jamshid Azimovich</i>	
MA'NAVIY EHTIYOJLAR JAMIYAT MA'NAVIY HAYOTINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	142-148
<i>Соатов Ғайрат</i>	
БАЙРАМЛАР – МИЛЛАТНИНГ ОЛИЙ ҚАДРИЯТИ	149-156
<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i>	
NAQSHBANDIYLAR EHTIROMIGA SAZOVOR BUYUK ZOT	157-161
<i>Wang XiaoYu</i>	
AN ANALYSIS OF THE MYTHICAL PATTERNS IN ULYSSES FROM THE PERSPECTIVE OF ARCHETYPE THEORY	162-170
<i>Mamadkulova Kamila Abdukhalikovna</i>	
FEATURES OF 19th CENTURY LITERATURE: ROMANTICISM AND REALISM	171-175
<i>Aripova Saodat Taxirovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKALARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI	176-181
<i>Xudoyqulov Behzod Abbosovich</i>	
ITALYAN TILDAGI FRAZEOLOGIK IBORALAR TARJIMASI VA ULARNING O'ZBEK TILDAGI EKVIVALENTLARI	182-187
<i>Mavlonova Gulnora Abdig'ani qizi</i>	
ADABIYOTDA QO'LLANILGAN EVFEMIZMLAR (ROMAN VA SHE'RIYAT) MISOLLAR BILAN	188-192
<i>Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Izzatilloyeva Sevinch Nusratilloyevna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "YAXSHILIK" KONSEPTINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSUYATLARI	193-197
<i>Djurayeva Orzigel Gafurovna</i>	
QAXXOR BAXSHI RAHIMOV IJODINING O'RGANILISHI	198-204
<i>Gafarova Shahnoza Hayrullayevna</i>	
TIL VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR	205-209

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

- Исломқурова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУФУРТА ҚИЛИШНИ ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ
ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ОМИЛЛАРИ ВА ЗАРУРИЯТИ 210-215

Sarvinoz Sunnatillaeva

- PROCEDURAL CHALLENGES IN THE REGULATION OF ABUSE OF DOMINANT POSITION IN
UZBEKISTAN 216-222

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Soliyev Ibodulloxon Ismatullayevich

- FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF REFORMS IN THE MANAGEMENT SYSTEM OF
HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 223-233

Shokirov Po'lat

- TALABALARGA ATLETIK GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHING
USLUBIY ASOSLARI 234-238

Begmatova Dilnoza Muxtarovna

- JAHON MIQYOSDA TA'LIM JARAYONI SUBYEKTLARIDA MADANIY IMMUNITETNI
SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI 239-243

To'rayev Panji To'xtayevich

- MILLIY KURASH MASHG'ULOTLARIDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIKNI TASHKIL
ETISH VA SHAKLLANTIRISH 244-248

- Axmedova Nafisa Isaxodjayevna, Azamatov Abdullo Isaxo'ja o'g'li, Lutfullina Rumiya Anvarovna
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAKULTETLARI TALABALARI
UCHUN ANTIDOPING QOIDABUZARLIKLARINING OLDINI OLISH MEXANIZMINI
YARATISH 249-256

Egamberdiyev Javlonbek

- TA'LIM MUASASSALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH VA UNING
ILMIY-USLUBIY ASOSLARI 257-260

Kenjaboev Abdisalim Erkaboevich

- ZAMONAVIY TA'LIM- TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK RAHBARNING
KOMPETENTLIGI 261-265

Saidov Hakim G'ofurovich

Urganch davlat pedagogika instituti
Milliy g'oya va falsafa kafedrasи dotsenti, PhD.
saidovakim654@gmail.com

VATANPARVARLIK VA MILLIY G'URURNING FALSAFIY KATEGORIAL NEGIZLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada faoliyat, faollikning vatanparvarlik bilan uyg'un kelishida, qaralishida o'ziga xos ijtimoiy falsafiy fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada inson o'zining tirik mavjudot ekanini anglashi uchun tinch, osuda va oilasi davrasida, "ma'naviy ruhiy osoyishtalik qaror topgan muhitda" ham bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: "faoliyat", "faollik", "amallar", "altruizm", "qahramonlik" va "jasorat" harbiy, falsafiy, harbiy xodimlar, ijtimoiy.

Saidov Hakim Gofurovich

Urganch State Pedagogical Institute, Associate Professor of
the National Idea and Philosophy Department, PhD

PHILOSOPHICAL CATEGORICAL FOUNDATIONS OF PATRIOTISM AND NATIONAL PRIDE

Abstract. In this article, a unique socio-philosophical thought is made on the harmony of activity and patriotism. Also, in the article, in order for a person to realize that he is a living being, he should be at peace, at ease and in the circle of his family, "in an environment where spiritual peace of mind is settled."

Key words: Agriculture, agrarian sector, farm, peasant farms, cooperative farms, cotton growing, grain growing, fruit and vegetable growing, animal husbandry.

Сайдов Хаким Гофурович

Ургенчский государственный педагогический институт
Доцент кафедры национальной идеи и философии, PhD.

ФИЛОСОФСКО-КАТЕГОРИАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПАТРИОТИЗМА И НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ

Аннотация. В данной статье высказана уникальная социально-философская мысль о гармонии активности и патриотизма. Также в статье, чтобы человек осознал, что он живое существо, он должен находиться в мире, непринужденности и в кругу своей семьи, «в среде, где утверждается духовное спокойствие».

Ключевые слова: Сельское хозяйство, аграрный сектор, фермерское хозяйство, крестьянские хозяйства, кооперативные хозяйства, хлопководство, зерноводство, плодовоощеводство, животноводство.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N18>

Kirish. Vatanparvarlik va milliy g'urur inson hayotining, mavjudligining mohiyatini ifodalovchi "faoliyat", "faollik", "amallar", "altruizm", "qahramonlik" va "jasorat" kabi kategoriyalarga borib taqaladi. Ijtimoiy falsafiy muammolar ham mazkur kategoriyalar orqali tahlil etiladi, shaxs bilan jamiyat, fuqaro bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar, umuman, ijtimoiy falsafaga oid barcha ijtimoiy munosabatlar ana shu tushunchalarda o'z inikosini topgani uchun ham tadqiqotchilar ularga murojaat etolmay, o'z muammolarini negizini ular bilan bog'lamay o'tolmaydi. Gnoseologiya va germenevtika nuqtai nazaridan tushunchalar, kategoriyalar ob'ektiv borliqning aynan o'zi emas, biroq inson olamni anglashning, bilishning boshqacha usulini hali kashf etganicha yo'q. Irratsional, mistik bilish esa intuitiv idrok doirasida qolgani uchun eksperimental kuzatuvdan tashqaridagi bilim, u obyektiv borliqni o'zgartirishni, takomillashtirishni nazarda tutmaydi. Ijtimoiy falsafa esa muammolarni shunchaki tahlil etib qolmaydi, u mazkur muammolarga echim topish orqali ijtimoiy borliqni takomillashtirish yo'llarini ham izlaydi.

Asosiy qism. "Faoliyat", "faollik", "amallar" inson mavjudligining sharti va ifodasi ekani antik davr faylasuflarigayoq ma'lum edi. "Faylasuflar otasi" Aristotel insonning ijtimoiy borliqdagi o'rni va mohiyatini uning "ijtimoiy mavjudot"ligida ko'rdi. Uning fikriga ko'ra, inson boshqa mavjudotlardan farqli ravishda fikrlash, fikrini ifodalash, ezgulik va yomonlikni sezish xislatiga ega, ya'ni yon atrofiga faol munosabatda bo'lish fazilatiga ega "ijtimoiy mavjudot" [1. 379]. Aristotelning bu fikri aslida ustozni Platon asarlaridan o'zlashtirilgan. Aynan Platon Suqrot dialoglarida inson nafaqat ma'naviy axloqiy sifatlarga, ezgulikka, go'zallik yaratishga, xuddi shuningdek, "eydos", polis, vatan manfaatlariga xizmat qilishga qodir shaxs sifatida qaraladi. Suqrotning mulohazalari va hayot tarzi polisga, hozirgi talqinda davlat shaharga, vatanga xizmat qilish g'oyasi bilan sug'orilgan [2. 237-239,343-359]. Platonning "Politika" asari insonning siyosiy mavjudotligini tasdiqlaydigan fikrlarga to'la. Suqrotning o'zidan yosh askarlar davrasida bosqinchilarga qarshi jang qilgani vatanparvarlikning yorqin namunasidir. "Faoliyat", "faollik", "amallar" shunchaki "o'zi o'zi uchun" mavjud tushunchalar emas, ular inson ongida shakllangan maqsadlar va xayollar orqali xatti harakatlarda obyektiplashgan voqeliklardir. Ularning vatanparvarlik bilan bog'liqligini ana shu obyektiplashish ifodasi sifatida qarash zarur. Aristotel "ezgulik ezgulik bilan yo'g'rilgan faoliyatga xosdir" [3.66], deganida ezgulik ezgu amallar orqali namoyon bo'ladi, faoliyat, har qanday tushuncha, maqsad, xayolning obyektiplashgan ko'rinishidir, degan fikrga olib keladi. Zamonaviy falsafiy ta'limotlar ham inson xarakterini belgilovchi maqsad va xayollarning me'zoni amaliy faoliyat ekanini tasdiqlaydi [4.48-52]. Shunday ekan, amaliy faoliyat vatanparvarlik va milliy g'ururning obyektiplashgan in'ikosidir.

Natija. Faoliyat, faollikning vatanparvarlik bilan uyg'un kelishida, qaralishida o'ziga xos ijtimoiy falsafiy ma'no bor. Buni quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, faoliyat, faollik ongli mavjudotning mavjudlik, hayotiylik sharti va ifodasidir. Faqat ongli mavjudotda, ya'ni insonda faoliyat, faollik anglangan hodisa tarzida namoyon bo'ladi. Faollik barcha mavjudotlarga xos, hatto asal arining uya qurishiga har qanday arxitektor havas qilishi mumkin. Asal arining faolligi shunchalik ratsional va tartibliki, undan inson ko'p narsalarni o'rganishi mumkin. Biroq asal arining faolligi anglangan faoliyat emas, faqat inson o'z xatti harakatlariga anglanganlik, maqsadlilik baxsh etadi. Aytmoqchi bo'lgan fikrimiz shundaki, faoliyat, faollik vatanparvarlik, milliy g'urur bilan uyg'unlashganida ularning barchasi inson xatti harakatlarini anglanganlik, maqsadlilik sintezidan o'tkazib qarashga yetaklaydi.

Faoliyatga, faollikka aylangan tuyg'ular ijtimoiy falsafiy mohiyatga ega. Ikkinchidan, faoliyat, faollik ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari hisoblanadi. Insonni faoliyat, faollik orqali tadqiq etish, uning xatti harakatlarini maqsadlilik, anglanganlik nuqtai nazaridan kuzatishi orqali ijtimoiy psixologik tadqiqotlar falsafaga yaqin turadi [5.]. Psixologiya fanlari doktori, professor A.N.Leontev esa inson ongining rivojlanishi, o'ziga xos psixologik voqelik sifatida shakllanishi aynan faoliyat, faollik bilan bog'liqligini, inson yaratgan madaniy boyliklar ana shu jarayonlar ifodasi, mahsuli ekanini assoslagan[6.418]. Keyinchalik E.Fromm insonning ijtimoiy borliqdagi o'rnini, "mavjudlik yoki nomavjudlik" muammosini "ijtimoiy va madaniy faoliyat" bilan bog'laydi [7. 192-194].. Ha, faoliyat, faollikni insonning barcha xatti harakatlariga tatbiq etish mumkin. Biroq unutmaslik zarurki, faoliyat, faollik vatanparvarlikda shunchaki tuyg'u bo'lib qololmaydi, u alohida fenomen darajasida namoyon bo'ladigan voqelikdir. Bu voqelikka fidoiylik, altruizm, jasorat, mardlik kabi fazilatlar ham kiradi. Vatan inson tug'ilib o'sgan, etnomadaniy merosini o'zlashtirgan, tili va tafakkurini shakllantirgan, ajdodlar xoki va tajribasini e'zozlashga o'rgatgan ijtimoiy makondir. Bu makondagi moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash, ko'paytirish, kelgusi avlodlarga yetkazish har bir shaxsning muqaddas burchi hisoblanadi. Milliy madaniyat va o'zlikni anglash ana shu burchni idrok etish, bajarish orqali ro'y beradi. Yuqorida tilga olgan fidoiylik va altruizm muqaddas burchning faoliyat,faollik, xatti harakatlardagi ifodasidir. Nima uchun inson fidoiy bo'lishi zarur? Qaysi ma'naviy axloqiy motiv uni fidoiylik ko'rsatishga undaydi? Hayotini xavf ostiga qo'yish har doim ham fidoiylik ko'rinishi hisoblanadimi? Altruizm qaysi hollarda ijobiy voqelik hisoblanadi? Qahramonlikning chegarasi, me'yorlari bormi? Ezgulik har doim ham altruizmga, vatansevarlikka olib keladimi? Bunday ezgulikning chegaralarini kim va qanday belgilaydi?... Ushbu azaliy falsafiy, etikaviy savollarga ijtimoiy fikr, tafakkur, etnopedagogika va etnodidaktika ko'pdan beri javoblar izlab keladi.

Biroq har bir ijtimoiy tarixiy bosqich, davr ushbu azaliy savollarga o'zicha, o'zining ma'naviy axloqiy imperativlariga muvofiq javob beradi, nimalarnidir qabul qiladi, nimalarnidir inkor etadi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning ushbu qonuni yuqoridagi azaliy savollar rolini kamaytirmaydi, balki ularni zamonaviylashtiradi, yangi bosqich, davr talablari sintezidan o'tkazadi. I.Kant nazarda tutgan "axloqiy imperativ" qadriyatlarni qayta baholash mezoni sifatida keladi, bu imperativlar inson xatti harakatlariga, amallari va faoliyatiga "tadrijiylik va zaruriylik baxsh etadi, ularni ijtimoiy ehtiyojlarga monand" baholaydi, dolzarblashtiradi [8. 311-314]. Agar I.Kantning ushbu "axloqiy imperativi"dan kelib chiqsak, inson amalga oshiradigan barcha xatti harakatlar axloqiy me'yorlar, normalar va qadriyatlarni bilan o'lchanadi, "inson borlig'ini go'zallashtiruvchi har qanday narsa" o'z navbatida uni "axloqan go'zal" qiladi [9. 23-25]. Nima uchun inson fidoiy bo'lishi kerak?Qaysi ma'naviy axloqiy motiv insonni fidoiy bo'lishga undaydi?Ijtimoiy falsafada, etikada insonning umri, tirikligi, hayoti eng ulug', ilohiy ne'mat ekani ta'kidlanadi. Hatto diniy dogmatik va ortodoksal qarashlarga moyil F.Akvinskiy, A.Brajenniy, Byome, YAssaviy, G'azzoliy ham inson hayotining ilohiy ne'mat ekани rad etishmagan, yaratganni anglash va uning o'yi bilan yashashda ilohiy fidoiylik ko'rganlar. Shunday ekan fidoiylik inson hayotining asosiy ko'rsatkichi hisoblanmaydi, balki uning fenomenal ko'rinishi, ya'ni ma'lum bir vaziyatlarda, ekstremal hollarda, dolzarblashtirgan xatti harakatlardagi ifodasi hisoblanadi. Har kun 24 soat fidoiy bo'lib yashash mumkin emas, inson o'zining tirik mavjudot ekanini anglashi uchun tinch, osuda va oilasi davrasida, "ma'naviy ruhiy osoyishtalik qaror topgan muhitda" ham bo'lishi kerak. Mutaxassislar buni "barqaror ma'naviy

ruhiy muhit” deyishadi [10. 23-25]. Demak, fidoiylik alohida vaziyatlarda va alohida xatti harakat sifatida keladigan, fenomal xususiyatga ega voqelikdir.

Fidoiylik inson hayoti uchun fundamental ahamiyatga ega “bazaviy qadriyatlar” bilan bog’liq. Bunday bazaviy qadriyatlarga hayotni asrash, ko’payish, o’z yaqinlarini xavf xatardan himoya qilish, ojiz va yordamga muhtoj yaqinlariga yordam ko’rsatish, boqish, tashqi dushmanlar hujumlarini bartaraf etish, tabiiy ofatlardan qutqarish, uy joy bilan ta’minalash kabilar kiradi. Agar diqqat bilan qarasak, ushbu “bazaviy qadriyatlar” insonni butun ijtimoiy tarixiy taraqqiyot bosqichlarida fidoiy bo’lishga, faollikka undab kelganini kuzatamiz. Masalan, hayotni asrash insonga tabiat tomonidan berilgan instinktdir. Bu instinkt davrlar o’tishi va insonning ijtimoiy mavjudotga aylanib borishi bilan ma’naviy ehtiyojga, ijtimoiy burchga aylangan. Tabiiy instinkt o’rnini madaniy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyoj egallagan, ushbu ehtiyoj, o’z navbatida, insonni boshqa insonlar, jamiyat, sotsium bilan yashashga undagan. Ijtimoiy axloqiy normalar, ma’naviy qadriyatlar taraqqiyot ehtiyojlari tarzida insoniyatga umumiylilik, umumbashariylik baxsh etib keladi. Mana fidoiylik mohiyatan nimalar bilan bog’liq. Yoki bo’lmasa, bazaviy qadriyat bo’lgan yaqinlarni zarur narsalar (uy joy, kiyim kechak, oziq ovqat) bilan ta’minalashni olaylik. Insonning to’laqonli yashashi, ongli mavjudot sifatida faoliyat yuritishi uchun ushbu bazaviy qadriyatlar o’ta muhim. Xalqlar, millatlar turmush tarzini belgilab kelgan, etnomadaniy boyliklarni o’lmas qadriyatlarga, artefaktlarga aylantirgan ushbu bazaviy qadriyatlar, falsafa fanlari doktori, professor Iso Jabborov iborasi bilan aytganda “xo’jalik madaniy tiplari” [11.36-49]. insonni, xalq, etnos vakili sifatida, fidoiy bo’lishga undab keladi. Fidoiy bo’lmasdan ushbu bazaviy qadriyatlarni asrab ham, millat, etnos vakili sifatida yashab ham bo’lmaydi. Agar ibridoiy davrda jamoa bo’lib yashash shaxsdan ittifoqni, inoqlikni, birgalikda harakatni talab etgan bo’lsa, keyingi ijtimoiy tarixiy bosqichlarda bu talab, turli formatsion o’zgarishlar ta’sirida, transformatsiyaga uchragan bo’lsa da, mohiyatan o’zgarmadi. Jamoa bo’lib yashash instincti jamiyat, sotsium bo’lib yashash tartibiga aylandi, ammo har ikki tartib ham insondan fidoiylikni talab etgan. Aslida jamoa, jamiyat bilan yashash har doim ma’lum bir ma’noda o’z manfaatlaringdan kechishni, hatto fidoiylikni taqozo qilgan. Shaxsning fidoiyligi uni jamoa a’zosiga, yetakchisiga yoki yirik shaxsga, liderga aylantirgan [12. 43-45, 235-243]. Vatanparvarlikdagi fidoiylikni hayotni xavf ostiga qo’yib biror nimani himoya qilish, jonni qurbon qilish, o’lish tarzida talqin qilish mumkin emas. Inson hayoti oliy qadriyat. Fidoiylik uzlucksiz, turli to’siqlar va qarama qarshiliklarga qaramay, izlanish, yaratish tarzida ham kelishi mumkin.

Xulosa. Xulosamiz shuki vatanparvarlik va milliy g’urur o’ziga xos kategoriyalariga ega. Ularning ijtimoiy falsafiy mohiyatini “faoliyat”, “faollik”, “fidoiylik”, “altruizm”, “qahramonlik” kabi tushunchalar orqali anglash mumkin. Bu tushunchalar pirovard natijada vatanparvarlik va milliy g’ururning real hayotda, ijtimoiy borliqda obyektivlashganidan dalolat beradi. Vatanparvar mudom fidoiy kishidir, u o’z umrini, mehnatini va intellektual salohiyatini vatani, yurti, eli ravnaqiga sarflab evaziga hech nima kutmaydigan, talab etmaydigan shaxs. Ma’lum bir obyektiv va subyektiv sabablar bois u o’z vaqtida qadrlanmasligi, taqdirlanmasligi mumkin, biroq davr keladiki, uning mehnatini, fidoiyligini jamiyat, tarix munosib taqdirlaydi. Shunday o’y, fikr bilan yashash ba’zi kishilarni “tan olinmagan qahramonlar”, va geniylargaga aylantiradi. Bunda eng muhim jihat ma’naviy axloqiy ideal bilan, oliyjanob istaklar va maqsadlar bilan yashashdir. Vatan tinchligi, ravnaqi va kelajagi haqida qayg’urish, milliy g’urur bilan sug’orilgan

faxr, iftixor tuyg'usiga burkangan amallar bilan faollik ko'rsatish, kreativ izlanish faoliyatga ma'naviy axloqiy fenomenlik baxsh etadi.

Литература/Адабиётлар/References:

1. Аристотел. Сочинения в 4 томах. Том 4. Москва: Мысль, 1984. С.379.
2. Платон. Сочинения в трех томах. Т.3. Москва: Мъсл, 1976, С.237 239, 343, 359
3. Аристотел. Сочинения в 4 томах. Т.4. Москва: Мъсл, 1984. С.66.
4. Ахмедова М. И др. Сотсиалная философия. Ташкент: Уқитувчи, 1997. С.102 104; Сотсиалная философия. Учебное пособие. Москва: Алма матер, 2004. С. 48,52
5. Ананев Б.Г. Человек как предмет познания. СПб.: Питер, 2001; Бодалев А.А. Восприятие человека человеком. СПб.: Питер, 2003; Абулханова Славская К.С. Деятельность и общение. СПб.: Питер, 2006.
6. Леонтьев А.Н. Проблем развития психики. Москва: Изд. Моск. ун та, 1991. С.418
7. Фромм Э. Искусство бит. Новая философия. Москва: АСТ, 2014. С.192 194
8. Қаранг: Кант И. Из лекций по этике / Этическая Мъсл. Научно публицистическое чтение. Москва: 9.Политиздат, 1998. С.311-314
9. Ўша асар. С. 344
10. Оила психологияси. Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. 23 25 б.
11. Жабборов Исо. Ўзбек этнографияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1999. 36,49 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/1 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).